

O‘ZBEKISTONDA ENERGETIK AUDIT O‘TKAZISH TALABLARI

Andijon Mashinasozlik Instituti t.f.f doktori

Doniyorbek Alijonov Dilshodovich

Andijon Mashinasozlik Instituti 3-kurs talabasi

Axmadaliyev Nodirbek Muhammadzokir o`g`li

Annotatsiya: Bu maqola O‘zbekistonda energetik audit o‘tkazish talablari mavzusidagi muhim ma’lumotlarni ko‘rsatadi. Energetik audit, binoning yoki tashqi soxalarining ishlatilgan energiyasi miqdorini va sifatini baholashni o‘z ichiga oladi. Maqola o‘zbekiston hududidagi energetik audit o‘tkazish talablari va shartnomalarini ta’riflashni yoritib beradi. Auditorlik jarayoning amalga oshirilishidagi holatlarni qonunda belgilangan mezonlar bilan hal etilishi va auditorlik jarayoninig turlari haqida ma’lumotlar beradi. Maqolada energetik auditning maqsad va xizmat ko‘rsatish sohasidagi rivojlanish, keyinchalik ko‘rsatmalar natijasidagi foyda va zararlar, energetik audit vaqtida nima qilinishi lozimligi, auditorlar tomonidan talab etiladigan malaka va sertifikatlar haqida ma’lumotlar beriladi. Maqola O‘zbekistonda energetik auditning o‘ziga xos xususiyatlari, uni bajarish jarayonida tashkil etiladigan ishlar va amalda yo‘l qo‘yiladigan muammolarni ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: auditor, auditorlik tashkiloti, auditorlik faoliyati, renking, talabgor.

Abstract: This article provides important information on the energy audit requirements in Uzbekistan. An energy audit assesses the amount and quality of energy used in a building or its external areas. The article explains the definition of energy audit requirements and contracts in Uzbekistan, detailing the types of auditing processes and guidelines defined by the law. It also provides information on the purpose of energy audit and its development in the field of service delivery, the benefits and losses resulting from the instructions, what is expected during an energy audit, and the qualifications and certificates required by auditors. The article highlights the specific features of energy audits in Uzbekistan, the work organized during the auditing process, and the problems that occur in practice.

Keywords: auditor, audit organization, audit activity, ranking, applicant.

Zamonimizning globallashuv sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va liberallashtirish, jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirish va kapital bozorini hamda raqamli iqtisodiyotni yanada taraqqiy ettirish, zamonaviy korporativ boshqaruv printsiplarini joriy etish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruvni yanada yaxshilash uchun auditorlik xizmatlari sifatini oshirish lozim bo'lmoqda. Yaqin paytga qadar amalda bo'lgan "Auditorlik faoliyati

to'g'risida"gi qonun 2000 yilda qabul qilingan. So'nggi 20 yil ichida bu bozorda katta o'zgarishlar ro'y bergani va qator islohotlar amalga oshirilgani tufayli u bugungi kun talabiga to'liq javob bermasligi ayon bo'lib qolgan edi. Shu sababli zamonaviy talablar va xalqaro amaliyot printsiplariga asoslangan auditorlik faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish, qoida va normalarni hamda me'yoriy hujjatlarni yagona normativ-huquqiy hujjatda unifikatsiyalash va tizimlashtirish maqsadida 2021-yil 25-fevralda yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi auditorlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

auditor — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

Auditorlar reyestri — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reyestr mustasno;

auditorlik tashkiloti — auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti;

Auditorlik tashkilotlarining reyestri — auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati;

auditorlik faoliyati — auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati;

audit qo'mitasi — xo'jalik yurituvchi subyektning kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan, qoida tariqasida, kamida bir nafar mustaqil a'zoni o'z ichiga oladigan, moliyaviy hisobotni tuzishning to'g'riligi ustidan nazorat o'rnatilishi, mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o'rganish uchun mas'ul bo'lgan qo'mita;

renking — auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlariga ajratilgan auditorlik tashkilotlarining tartibga solingan ro'yxatlarini shakllantirish;

talabgor — malaka sertifikatini olishga yoki uning amal qilish muddatini uzaytirishga da'vogar bo'lgan jismoniy shaxs.

Auditorlik tekshiruvi tashabbusli va majburiy auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Bundan tashqari bu qonunda davlatimizda auditorlik jarayonini amalga oshirish va unga qo'yiladigan talablar haqida to'liq mezonlar belgilab qo'yilgan. Bularga misol qilib:

Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar mustaqillik, xolislik va halollikdan, kasbiy bilimga egalik hamda axborotning maxfiyligidan iboratdir. Auditor taxminlarga asoslanib fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Auditorlik tashkiloti mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak. Auditor jamiyat manfaatlarini ustuvorligiga rioya etishi, beg'araz bo'lishi va taxminlarga asoslanishi, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa shaxslarning bosimlari sababli o'zining kasbga oid fikr-mulohazasida tavakkalchilik qilmasligi, auditorlik tashkilotining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Auditor ushbu Qonun talablariga rioya etishi, yetarli darajada chuqur kasbiy bilimga ega bo'lishi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini auditorlik tashkiloti tarkibida sifatli auditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun yetarli bo'lgan darajada saqlab turishi kerak. Auditorlar va auditorlik tashkiloti xodimlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni o'ziga auditorlik xizmatlari ko'rsatilgan shaxslarning yozma roziligisiz oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas, bundan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Davlatimizda ham audit jarayonlarini xalqaro talablarga javob beradigan asnoda amalga oshirish uchun ko'plab talab va mezonlar belgilab qo'yilgan. Dunyoda auditorlik xizmatlaridan foydalanish rivojlanib boryapti. Xususan, IFAC – Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining rasmiy hisobotiga ko'ra, 130 ga yaqin davlatda 175 dan ziyod professional buxgalterlar uyushmasi, 3 milliondan ziyod professional auditor, 100 mingdan ortiq auditorlik tashkiloti mavjud. Birgina Deloitte tashkilotining o'zi 150 ta davlatda 1600 dan ziyod shartnoma asosida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazib, 46,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi daromadni qayd etdi.

Respublikamizda 2021-yilning 1-yanvar holatiga 99 ta auditorlik tashkiloti faoliyat ko'rsatib kelyapti, auditorlar soni 572 kishini tashkil qiladi. 19 ta mahalliy auditorlik tashkiloti yirik xalqaro tarmoq va uyushmalar a'zolari hisoblanadi. Yurtimizda ham katta to'rtlik (Big-4) - "Ernst & Young", "PricewaterhouseCoopers", "Deloitte and Touche" va "KRMG" xalqaro auditorlik tashkilotlarining sho'ba jamiyatlari faoliyat yuritib kelmoqda. Auditorlik tashkilotlariga qulaylik va engilliklar yaratish maqsadida bir qator yangi normalar kiritildi. Jumladan, auditorlik tashkilotlarining ustav kapitali miqdoriga bo'lgan talab bekor qilindi. Ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalanadigan mol-mulkdan, shu jumladan, pul mablag'laridan shakllantiriladi. Tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqil bo'lib, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Unda asosiy ish joyi

hisoblangan kamida to'rt nafar auditor bo'lishi, filialining rahbari esa, albatta, auditor bo'lishi kerak. Tadbirkorlik sub'ektlarining yagona davlat reestriga kiritilgan sanadan e'tiboran uch oy davomida u haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlari reestriga kiritilmagan tijorat tashkiloti o'z nomida "auditorlik tashkiloti" degan so'z birikmasidan foydalanishga haqli emas. Qonunga ko'ra, xalqaro amaliyot asosida auditorlik xizmatlarining tarkibi aniqlandi. Aynan shunday xizmat turlari MDH mamlakatlari qonun hujjatlarida va auditning xalqaro standartlarida mavjud. Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi, shartnoma asosida ish olib boradi. Qonunda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi bayon qilingan. Unda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olishga yo'naltirilgan va audit mustaqilligini ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklovlar sanab o'tildi. Xususan, ketma-ket etti yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emas. Soha tashkilotlarining majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishi uchun shtatida kamida ketma-ket uch yillik uzluksiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditor bo'lishi hamda ish sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalariga ko'ra, qonunchilik buzilishi hollari mavjud bo'lmaganda ruxsat berildi.

Auditorlik tashkiloti o'zi haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sanadan e'tiboran auditorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. Auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir. Auditorlik tashkiloti vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Auditorlik tashkilotlariga tadbirkorlik faoliyatining ushbu Qonun 32 va 33-moddalarida nazarda tutilgan turlaridan tashqari boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish taqiqlanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin emas. Auditorlik tashkiloti, basharti quyidagi majburiy shartlarga rioya etsa, qonunchilikda nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda, bundan aksiyadorlik jamiyati mustasno, tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin:

auditorlik tashkiloti o'zi uchun asosiy ish joyi bo'lgan auditorlarning eng kam soni shtatdagi kamida to'rt nafar auditordan iborat bo'ladi;

auditorlik tashkilotining ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalanadigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantiriladi;

ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) auditorlarga (auditorga) tegishli bo'lgan ulush kamida ellik bir foizni tashkil etishi kerak (bundan auditorlik tashkiloti — chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki shu'ba xo'jalik jamiyati tashkil etilgan hollar mustasno);

auditorlik tashkilotiga faqat o‘zi uchun mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi bo‘lgan auditor rahbar bo‘lishi kerak.

Yakuniy fikr qilib aytganda, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi tartibga solish va audit jarayonidagi tartib-taomillarning shaffofligini oshiradi, har taraflama ishonchlilik va aniqlikni orttirilishiga zamin yaratadi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ishonchli audit xulosasi bilan ta‘minlaydi, xalqaro standartlar asosida mustaqil audit o‘tkazish amaliyotini tatbiq etadi, auditorlik tashkilotlari xizmatlari sifatini va raqobatbardoshligini oshiradi, sohadagi hujjatlarni tizimlashtiradi va qonunosti hujjatlarning qisqarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 021-yil 25-fevral, O‘RQ-677-sonli qarori.
2. <http://lex.uz/docs/-5307886> Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonuni.
3. Energetik audit va sanoat korxonalarinig energetik auditi- 5312100